

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 yanvar holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 8,4 foizga o'sdi
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi o'tgan yilga nisbatan 1,1 foizga kamaydi
- Korxonalarining tashkil etish ko'effitsenti 16,1 foiz va tugatish ko'effitsenti 8,8 foizni tashkil etgan. Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar 7,2 barobarga ko'proq


2017 yil yakuni bo'yicha Samarqand viloyatida 3385 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 42,0 foizga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,1 foizga ko'paygan hamda ularning soni 1988 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 8,4 foiz (1626 ming birlik) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 21061 tani tashkil etgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Samarqand shahrida (13,1 foiz), Urgut (14,6 foiz), Samarqand (10,4 foiz) va Pastdarg'om (0,5 foiz) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Korxonalar va tashkilotlar

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, foizda




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,6 foiz), savdoda (-0,5 foiz), qurulishda (-0,1 foiz), hamda boshqa turlarda (-1,7 foiz.dan) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+1,7 foiz), qishloq,o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,9 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,6 foiz), tashish va saqlashda (+0,3 foiz) shuningdek axborot va aloqada (+0,2 foiz) faoliyat turlarida ulushining o'sishiga olib keldi.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 93,6 foizni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 6,4 foizni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan taqqoslanganda 1,1 foizga kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,5 foiz savdoda, 17,6 foiz sanoatda, 7,9 foiz qurulishda, 6,8 foiz qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,7 foiz yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,3 foiz tashish va saqlashda, 1,9 foiz axborot va aloqada, 2,2 foiz sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 32,1 foiz boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) foizda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 yanvar holatiga viloyatda jami 280 ta xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar mavjud bo'lib, ulardan 221 tasi qo'shma korxonalar, 59 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning ulushi, foizda



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni va ulushi

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahri (142 ta yoki 50,7 foizi), Urgut tumani (36 ta 12,9 foizi), Jomboy (24 ta 8,6 foizi), Samarqand (14 ta 5,0 foizi), Pastdarg'om (12 ta 4,1 foizi), Tayloq (10 ta 3,6 foizi), Kattaqo'rg'on shahrida (8 ta 2,9 foizi), Oqdaryo tumani (7 ta 2,5 foizi), Bulung'ur tumani (7 ta 2,5 foizi), hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qo'shrabot tumani (1 ta 0,4 foizi), Kattaqo'rg'on (2 ta 0,7 foizi), Payariq (2 ta 0,7 foizi), Ishtixon 3 ta (1,1 foiz), Paxtachi (3 ta 1,1 foizi), Narpay (4 ta 1,4 foizi), Nurobod tumani (5 ta 1,8 foizi) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

	<i>soni</i>	<i>ulushi,%</i>
Samarqand viloyati	280	100,0
Samarqand sh	142	50,7
Kattaqo'rg'on sh	8	2,9
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	7	2,5
Bulung'ur	7	2,5
Jomboy	24	8,6
Ishtixon	3	1,1
Kattaqo'rg'on	2	0,7
Qo'shrabot	1	0,4
Narpay	4	1,4
Payariq	2	0,7
Pastdarg'om	12	4,1
Paxtachi	3	1,1
Samarqand	14	5,0
Nurobod	5	1,8
Urgut	36	12,9
Tayloq	10	3,6


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2017 yil yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha viloyatda jami 56 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy qismi Samarqand shahri (27 ta), Pastdarg'om tumani (6 ta), Jomboy (4 ta) va Urgut tumanlarida (4 ta) tashkil etilgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar eng kam tashkil etgan tumanlar qatoriga Samarqand tumani (1 ta), Qo'shrabot tumani (1 ta), Payariq tumani (1 ta), Oqdaryo tumani (1 ta) hamda Ishtixon tumanini (1 ta) kiritish mumkin.

▪ Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni hududlar kesimidagi soni, birlikda

Samarqand viloyati	Samarqand sh.	Kattaqo'rg'on sh.	Oqdaryo	Bulung'ur	Jomboy	Ishtixon	Kattaqo'rg'on	Qo'shrabot
	27	3	1	2	4	1		1
56	Narpay	Payariq	Pastdarg'om	Paxtachi	Samarqand	Nurobod	Urgut	Tayloq
		1	6		1	2	4	3

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda




Faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 yanvar holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 191 ta (68,2 foizni), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 15 ta (5,4 foizni), savdoda 36 ta (12,9 foizni), boshqa turlarida esa 17 ta (6,1 foizni) tashkil qilgan, eng kamlari esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 6 ta (2,1 foizni), tashish va saqlashda 5 ta (1,8 foizni) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 4 ta (1,4 foizni), qurilishda 3 ta (1,1 foizni), axborot va aloqada 3 ta (1,1 foizni) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa qurilish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 38 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 8 ta, savdoda 4 ta, qurilishda 2 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta hamda boshqa faoliyat turlarida 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hamkor davlatlar ishtirokidagi ulushi

Samarqand viloyatida jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi 280 ta korxonalarining 78,5 foizi (220 ta) uzoq xorijiy davlatlar hissasiga, 21,5 foizi (60 ta) esa Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (keying o'rinlarda MDH davlatlari) davlatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Jumladan, MDH davlatlari ichida Rossiya Federatsiya kapitali ishtirokida faoliyat yuritayotgan xorijiy korxonalar 41 tani, Latviya Respublikasi 7 tani, Qozog'iston Respublikasi 5 tani, Ukraina 2 tani, Belorussiya Respublikasi 2 tani va qolgan davlatlar 3 tani tashkil etadi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining MDH davlatlari kesimidagi soni, birlikda



Uzoq davlatlar kapitali ishtirokidagi 220 ta, xorijiy korxonalarining 51 tasi Xitoy Xalq Respublikasi, 43 tasi Turkiya Respublikasi, 21 tasi Buyuk Britaniya, 11 tasi AQSH, 10 tasi Eron Islom Respublikasi, 6 tasi Avstriya Respublikasi, 7 tasi Chexiya Respublikasi, 10 tasi Germaniya Federativ Respublikasi, 14 Birlashgan Arab Amirliklari va 47 tasi boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining uzoq davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni 16005 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 14,5 foizga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining asosiy qismi ya'ni, 5597 tasi (35,0 foizi) Samarqand shahriga, 1557 tasi (9,7 foizi) Urgut, 1133 tasi (7,1 foizi) Pastdarg'om hamda 1120 tasi (7,0 foizi) Samarqand tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining hududlar kesimidagi ulushi, foizda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

O'tgan 2017 yil davomida 3259 ta kichik tadbirkorlik sub'yektlari yangi tashkil etilgan. Bu esa 2016 yilga qaraganda 43,3 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub'yektlari Samarqand shahrida (1059 ta), Urgut tumanida (326 ta), Samarqand (272 ta) va Pastdarg'om tumanlarida (244 ta) tashkil etilgan. Eng kam yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub'yektlari esa Qo'shrabot tumanida (40 ta), Paxtachi (60 ta) hamda Nurobod (76 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining hududlar kesimidagi soni, birlikda




Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


Faoliyat yuritayotgan 16005 ta kichik tadbirkorlik sub'yektlarini toifalarga bo'lganda kichik korxonalar 8,9 foizni (1424 tani), mikrofirmalar esa 91,1 foizni (14581 tani) tashkil qilgan.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, foizda

Mikrofirmalar, %



Kichik korxonalar, %




Oilaviy korxonalar soni

Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 yanvar holatiga 1602 tani tashkil etib, ulardan 1549 tasi yoki 96,7 foizi faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni mos ravishda 69,3 va 71,5 foizga o'sgan.


Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Oilaviy korxonalar soni

Jami 1549 ta faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi ya'ni, 533 tasi (34,4 foizi) Samarqand shahriga, 171 tasi (11,0 foizi) Ishtixon tumaniga, 145 tasi (9,4 foizi) Pastedarg'om hamda 144 tasi (9,3 foizi) Samarqand tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar 10 tasi (0,6 foizi) Kattaqo'rg'on shahri, 11 tasi (0,7 foizi) Paxtachi, 13 tasi (0,8 foizi) Qo'shrabot, 20 tasi (1,3 foizi) Nurobod hamda 25 tasi (1,6 foizi) Kattaqo'rg'on tumanlariga to'g'ri keladi. Bu esa ushbu hududlarda oilaviy korxonalar bilan ishlash yaxshi yo'lga qo'yilmaganligini ko'rsatib turibdi.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi ulushi, foizda



Oilaviy korxonalar soni

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qaralganda oilaviy korxonalarining 36,8 foizi yoki 570 tasi sanoat, 25,8 foizi yoki 400 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,5 foizi yoki 240 tasi savdo, 9,4 foizi yoki 145 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,9 foizi yoki 30 tasi axborot va aloqa, 1,1 foizi yoki 17 tasi qurilish, 0,8 foizi yoki 13 tasi tashish va saqlash, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 0,3 foizi yoki 4 tasi hamda 8,4 foizi yoki 130 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



Oilaviy korxonalar soni

2017 yilda 727 ta yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, demak asosan sanoatda 255 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 208 ta, savdoda 116 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 90 ta, axborot va aloqada 9 ta, tashish va saqlashda 6 ta, qurilishda 6 ta va boshqa faoliyat turlarida 37 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

F.Zulfuqorov
(0371) 230-85-42

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR)
ma'lumotlari asosida tayyorlangan